

MEHRINOZ ABBOSOVA

# MEN YOSHLIKMAN

*She'rlar*



TOSHKENT  
«ADIB» NASHRIYOTI  
2011 YIL

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ў)6

A12

*Ushbu kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan.*

Abbosova, Mehrinoz

A12 **Men yoshlikman:** she’rlar /M. Abbasova.

—T.: “ADIB” nashriyoti, 2011. -64 bet.

ISBN 978-9943-317-44-4

**УДК: 821.512.133-1**

**ББК: 84 (5Ў)6**

ISBN 978-9943-317-44-4

© «ADIB» nashriyoti, 2011

© M. Abbasova, 2011

## EZGU AN'ANA

Yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalar mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zlarining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatlarga yoki ustoz adiblar qoshiga iyma-nibgina borayotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoirlariga aylansa, ajab e mas.

Muhtaram Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak", degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz e mas. Bugungi barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq yoshlar siyosati eng birlamchi masala-lardan biriga aylandi. Mana, yigirma yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo'q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib

bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash uchun yaratilgan bugungi sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, o'tgan 2010 yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh shoir, yozuvchi, publisist va adabiyotshunoslarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganidan yurtdoshlarimiz yaxshi xabardor. Ezgu an'anaga aylanib ulgurgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida bu yil ham badiiy adabiyotning turli yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan iste'dodli yoshlarning ilk kitoblari nashrga tayyorlandi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu ijodkorlar "Do'rmon" ijod uyida o'tkazilgan seminarlarda tanlab-saralab olindi, qo'lyozmalar o'sha joyning o'zida - ustoz va shogirdlik an'anasi asosida qiyomiga yetkazildi.

Qo'lingizdagi mana shu kitob ham o'sha mashaqqatli va serzavq mehnatning mevasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

## QO'SHIG'IM

Manzilga eltmaydi mayda qadamlar,  
Mayda orzularga bermaylik qanot.  
Mayda gap-so'zlarni qo'ying, odamlar,  
Toki maydalashib ketmasin hayot.

Mayda dardlardan ham asrangil, yurak,  
Katta she'riyatni sol dilistonga.  
Katta maqsad, katta qadamlar kerak  
Katta yo'lga chiqqan O'zbekistonga!





## O'ZBEKISTONIM

Ruhim bilan senga kelmasam,  
Bu tan kechirmas.  
Seni tanimasam, bilmasam,  
Otam kechirmas.

Yuragimga nur to'kkan olam  
Kengga o'xshaydi.  
Yo'llaringa gul ekan onam  
Senga o'xshaydi.

Sen mensiz ham guvlayverasan  
Misoli dengiz.  
Sen mensiz ham gullayverasan,  
Men — hech kim sensiz...  
O'zbekistonim!



## MUBORAKBOD

*“O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni sohiblariga*

Mana, ko‘ksingizda tole’ yulduzi,  
Yurakka nur sohib porlab turibdi.  
Buyuk kelajakka mas’ullik hissi,  
Sizni kamolotga chorlab turibdi.

Mana, ko‘zingizda quvonch surati,  
Tuyg‘ular toshadi vujudga sig‘may.  
Turibsiz qalblarda yurt muhabbati,  
Vatanni quchoqlab, o‘rmoqlikka shay.

Alqaylik gullagan Vatan ertasin,  
Buyuk qilayotgan ulug‘ insonni.  
Yashaylik mana shu nishon singari  
Yuraklarga qadab O‘zbekistonni.  
Yuraklarga qadab O‘ZBEKISTONni!





\* \* \*

Mana men — yoshlikman, hech olmasman tin,  
Vatan, bir koringga kelar yaragim.  
Menga bor dardingni aytishing mumkin,  
Bugun jussamdan ham katta yuragim.

Bola edim, yelkalab yurguvchi otam  
Kaftida avaylab, suyib o‘stirdi.  
Yiqilsam, qo‘limdan tutguvchi Vatan  
Suyanchig‘im bo‘lib, suyab o‘stirdi.

Bunda shamollar ham mayin yeladi,  
Qaydan topgum bundoq O‘ftobistonni.  
Endi menga suyan, degim keladi,  
Shart bag‘ringa bosib O‘zbekistonni!





## XITOB

Bolasin avaylab suyar edi ko‘p,  
Tayyor turar doim borin bermakka.  
Ona yuvib-tarab tayinladi xo‘p,  
Dog‘ tushirmagin, deb oppoq ko‘ylakka.

Bolakay unutdi, yubordi to‘kib  
Oppoq ko‘ylagiga anor donasin.  
So‘ng uyiga qaytdi biroz qo‘rqinib,  
Axir ranjitgandi aziz onasin.

Ohu faryod urib qilmasdan nola,  
Ona jim yig‘ladi, yum-yum yig‘ladi.  
Boshqa qilmaslikka so‘z berdi bola,  
Jajji yurakchasi nedir ilg‘adi.

Bu dog‘ aylanmasin vahshat qoniga,  
Xalqing — onang sendan shod bo‘lsin, tokay.  
Buyuk, pok millat-u Vatan sha‘niga  
Dog‘ tushirmayman, deb so‘z ber, bolakay!



\* \* \*

Menga har qachongidan  
Hurram ko'rindi bu kuz,  
Ko'ksimning chap yog'ida  
Gullab ketdi bitta so'z.

Kecha tug'ilgan toychoq,  
Bugun-chi, saman bo'ldi.  
Yo'lda ketar ekanman,  
Ko'rganim chaman bo'ldi.

Tor va toshloq ko'chalar  
Keng bugun, ravon bugun.  
Ko'z yetmagan cho'qqilar  
Oshilgan dovon bugun.

Yarim yo'llarda qolsin  
O'z so'zidan qaytganlar.  
VATANdek buyuk so'zni  
Til uchida aytganlar.

\* \* \*

Tuni bilan qon bo'ldi bag'ir,  
Ko'ksimda hech chaqmadi chaqmoq.  
Shoir uchun judayam og'ir  
Bo'm-bo'sh yurak bilan uyg'onmoq.

So'nasmikin ko'zlarimdagi  
Tangrim yoqib qo'ygan chiroqlar.  
Peshonamda tamg'aday abad  
So'roqlar, so'roqlar, so'roqlar.

Har bir quvonchimda Vatan izi bor,  
Uning tole'ida men ham bormanmi.  
Har bir nafasimga Vatan daxldor,  
Men Vatanga daxldormanmi?!

Shu savollar girdobi utar,  
Yechim topmas ko'ngil sirlarim.  
Evoh, har tong yoqamdan tutar  
Hali yozilmagan she'rlarim.



## FEVRAL SHE'RI

Laylakqor, yog'aver, bermaysan xalal,  
Hislarim she'r bo'lib kelar potirlab.  
Ko'ksing aslo sovuq muz emas, fevral,  
Bag'ringdan chiqqan-ku ikki qaynoq qalb.

Ul qaynoq qalblardan taft olib oqshom,  
Mashq yozurman bunda g'ujg'on yulduz-la.  
Qancha ash'orlarning guvohi, o sham,  
Hazrat Navoiydan, Boburdan so'zla.

Qalam tutib o'yga-xayolga tolgan,  
Hikmat to'la ko'zlarini aytib ber.  
Dillaridan o'tib, yozilmay qolgan,  
Minglab buyuk so'zlarini aytib ber.

Bu zamon o'qimoq, uqimoq oni,  
Bo'ylaylik she'riyat devonlaridan.  
Kel, topaylik ikki buyuk siymoni  
Har bir baytlari-yu devonlaridan.

Ul ikki dahoni o'qiyapmizu,  
Mening ko'zlarimda chaqnaydi quyosh.  
Ul ikki dahoni uqiyapmizu,  
Sening yuzlaringdan dumalaydi yosh.

Jonida Navoiy quyoshi bor sham...  
Jismida Boburning ko'z yoshi bor sham...

## **BOYCHECHAKLI SHE’R**

Ko‘k yuziga tortdi qora pardasin,  
Tashqari shi ρ-shiydon. Huvillar ko‘cha.  
Shamol zulumatga qilar zardasin,  
Sovuqdan uh tortib, g‘uvillar kecha.

Men xayol suraman ash‘or to‘g‘rida,  
Qizim, uxla, deydi, onam kuyunchak.  
Go‘zal tun, farahbaxsh fevral bag‘rida  
Yuragimni yorib chiqar boychechak.

Tutdim ko‘klam hidi anqqan qalamni,  
Mana tong otmoqda, she‘rim bitadi.  
Bahorni sog‘ingan butun olamni,  
Boychechakning bo‘yi tutib ketadi.





## **YOMG'IR**

Oqshom sukunati cho'kkan shaharga  
Yoz yomg'iri yog'ar jimlikni buzib.  
Yana qaytging kelar go'zal bahorga,  
Yana ketolmaysan ko'nglingni uzib.

Mayda-mayda tomchi sachrar har yoqqa,  
Ko'nglinga yog'ilar zavqi shu onning.  
Yig'loqi bulutning yoqasi loyqa,  
Etagi shalabbo bo'lar osmonning...



\* \* \*

Ajab sohir tuyulmoqda bu damlar,  
Hayqirib kuylaydi hatto toshgacha.  
Nechun beparvosiz axir, odamlar,  
Bu tun o'zgachadir, tamom boshqacha!

Boqaman olisga nigohim sanchib,  
Osmon chamanini qurshar oq gullar.  
Kun bo'yi sershovqin shahar ham tinchib,  
Biroz mizg'ish uchun cho'zilar yo'llar.

Bu kech ko'ngil qushi yana sayradi,  
Tun ham qulluq aytar tabriklarimga.  
Uyqudagi go'zal dunyo hayrati  
Ilinib qoladi ki priklarimga.





## BAHOR

Har tong derazamning qanotin ochib,  
Bir olam muhabbat bilan qarayman.  
Va dildan talpinib, hayqirib, toshib,  
Bahor keldimi, deb shoshib so'rayman.

Mana, ko'kda qator varraklar ila  
Qo'shilib kezmoqda mehr va sog'inch.  
O'rik ham bejirim ko'ylaklariga  
Yana taqib oldi oppoq to'g'nog'ich.

Go'zallik uyg'ondi, mana men guvoh,  
Endi yorug' tonglar e masdir g'arib.  
Quyoshning tikilib qarashidan, oh,  
Qizg'aldoqlar yuzi ketdi qizarib.

Bu holat surati ko'chdi yurakka,  
Dunyoni unutdim, o'zni unutdim.  
Va'da bersa-da u yana kelmakka,  
Bahorning qo'lidan mahkamroq tutdim.



\* \* \*

Bu zamon bo‘ronlar qilolmas hamla,  
Yomg‘ir.  
Halinchalak.  
Go‘zal bog‘daman.  
Toza ruhim, toza tuyg‘ularim-la,  
Hozir osmondan ham balandroqdaman.

Ko‘klam yomg‘irida sehrli kuy bor,  
Bu kuydan uyg‘onib ketar ona Yer.  
Tangrim yuborayotgan so‘zlarni, bahor,  
Yomg‘ir iplaringda olib tushib ber.

Tegramda dunyoning joni halakda,  
Tashlab qo‘yar menga hayot ko‘z qirin.  
Yangi she‘r yozyapman halinchalakda,  
Tinglab yoshligimning qiqir-qiqirin.





\* \* \*

Baxtdan masrur ruhimni ilkis  
Qurshab oldi jununvash hislar.  
O'tiribman xonamda yolg'iz,  
Ko'nghimdagi YOLG'IZni eslab.

Yuragimdan potrab nimadir  
Tiqildi-yov bo'g'zimga muzdak.  
O'zi ko'ksim to'lib turuvdi,  
Yomg'ir yog'di ustiga-ustak.

To'g'rimdagin keldi yupatgim,  
To'satdan ko'zguga ko'z solib,  
Tanimadim, yig'layotgan kim,  
Ko'zlarimga berkinib olib...



## TUG'ILGAN KUNIM

### 1

Mana bugun mening tug'ilgan kunim,  
Nega, nima uchun qutlaydi barcha.  
Axir nima qildim, neni do'ndirdim,  
Tug'ilganimdan to shu kunimgacha?

O'tgan kunlarimni qilganicha tahrir,  
Ko'milib boraman tubsiz so'roqqa.  
Nega tushunmaysiz, odamlar, axir  
Arziri nimam bor tabrikلامoqqa?

Hali uxloqligim, mudroqligimmi,  
Ayting, qanday yaxshi jihatlarim bor?  
Yoki o'ta ketgan qo'rqqoglimmi,  
Siz jimsiz. So'zimni qilmaysiz inkor.



## 2

Stolda turibdi haqiqat torti,  
Biroq uning ta'mi biroz achchiqroq.  
Picha adolatning ta'mini totib,  
Bir bo'lak vijdonga uzatdim barmoq.

Avjga chiqdi ziyofatning davomi...  
Qadahlar qo'shig'i, shampanlar raqsi.  
Evoh, xudbinlikning quyuq sharobi  
Ko'ylagimga sachrab ketmadi yaxshi.

## 3

Eshik taqillatdi Baxt, Quvonch, Shodlik,  
Ochsam turar bari tutib quchoq gul.  
Kirib keldi yangi hamrohim — YOSHLIK,  
Ammo nimagadir ko'nmasdi ko'ngil.

Men yangi do'stlarga qilib iltifot,  
Bilmabman u meni o'ksib kutganin.  
Sezmabman, qadrdon bolaligimning  
Qachon, qanday uydan chiqib ketganin.

Mana bugun mening tug'ilgan kunim...

\* \* \*

Uxloq hislarimni seldek gurlatgan,  
Qoshida suyukman, qoshida suyuk.  
Kamolim gullatgan, yo‘lim nurlatgan,  
UI BUYUK!

Yurakda yurtimni yashnatishdek ahd,  
Meni bag‘ir ochib kutayotgan — Baxt.  
Yonimdan sezdirmay o‘tayotgan vaqt  
Yuguruk!

O‘ZI yuragimga naqshladi ishonch,  
Endi tuyg‘ularim e mas yalong‘och,  
Ko‘ksimda childirma chalyapti quvonch:  
Duk-duk-duk...





\* \* \*

*Inson unutuvcchi de makdir.*

“Hadis” dan

Kulsam, yig‘lash tamom chiqadi yoddan,  
Yig‘lasam, unutmum nogoh kulguni.  
Borligin bildirib turadi, zotan,  
Eslolmay qolishdan qo‘rqaman UNI.

Bilishni bilmayman, borlig‘im gumroh,  
Dilim qachongacha o‘tar qutquda.  
Toki insonlikdan charchadim evoh,  
Tezroq shoir bo‘lgim kelyapti juda.



## MAY

Ismin yozib yaproq bag‘riga,  
Berkinolib titroq bag‘riga,  
Yomg‘irlardek tuproq bag‘riga  
Botib ketayotir may.

Bahor yakun topganligini,  
Ko‘klam eshik yopganligini,  
Quyosh gulni o‘rganligini  
Sotib ketayotir may.

Ortqilab yillarning g‘amini,  
Oftobda kuydirib tanini,  
Ayriliqning achchiq ta‘mini  
Totib ketayotir may.

Do‘l, yomg‘ir ham tinib bir pasda,  
Bahoroyni yetaklab asta,  
Iyunning qo‘liga guldasta  
Tutib ketayotir may.

Tirnalgan ko‘ksimni tirnamay,  
To‘lsang, to‘kilmasang bunda may,  
Hozir yonginamdan indamay  
O‘tib ketayotir may.

O‘tib ketayotir may...



## IYUN

Baliq tilin tishlaydi har choq,  
Hamisha osuda, sokindir ummon.  
Menga hayqirishning cheklovlari yo‘q,  
Axir men insonman, insonman, inson!

To qurib qolishga haqqim yo‘q zinhor!  
Hatto jilovini olgum quyunning.  
Bag‘riga daryoday to‘lib kirgum bor  
Lablari quruqshab qolgan iyunning.





## OTASHKURAK

*Shom chog'i, Jahon Otin qo'shiq xirgoyi qilib,  
ko'rsa qavib o'tirar edi. To'satdan hovli etagida qora  
sharpa paydo bo'ldi. Jirkanch qiyofadagi sharpa  
hamlasidan Jahon Otinni ayvon ustuniga suyog'lik  
turgan otashkurak asrab qoldi.*

“Jahon Otin UVAYSIY” videofilmidan

Seni ko'rsam ko'nglim o'sar, otashkurak,  
Yurak tinmay seni qo'msar, otashkurak.

Otashkurak, gardlaringni ko'zga suray,  
Qaynoq, otash yuragimni senga beray.

Seni ko'rsa quvnab ketar ikki ko'zim,  
Ta'rifingga kamlik qilar bu dam so'zim.

Seni molu dunyolarga alishmasman,  
Ming-ming oltin — tillolarga alishmasman.

Mumtoz nazm devorida izing qolgan,  
Senga mehrim, senga madhim dilga solgum.

Hazrat momom asrab qolgan azmannishon,  
Hazrat momom alqab qo'ygan azmannishon.

Ko'ksim — gulxan, olov — yurak, otash — yurak,  
Seni ko'rsam ko'nglim o'sar, otashkurak.



## PARDA

Boqsam.

Derazamdan bo‘ynimni cho‘zib,  
Bu fusunkorlikning yo‘qdek poyoni.  
Darpardalarni shart tashladim uzib,  
Boricha ko‘ray deb go‘zal dunyoni.

Barchasi chi ppakka chiqa boshladi,  
Pardasiz deraza va bo‘m-bo‘sh borliq.  
Hamma yoqqa bir-bir nigoh tashladim,  
Qani, avvalgiday mastliq, xummorliq.

Qani, avvalgiday parda ortidan,  
Oy chiqdimi, deya qiziqsinishlar?  
Xonamga tushgan nur haroratidan  
Ziyoxo‘r qalamim urishi nishlar.

Nazar solib parda chetidan go‘yo,  
Ishonardim bunday fusunga qat‘iy.  
O‘shanda mo‘jiza ko‘ringan dunyo,  
Endi ko‘rinardi judayam oddiy.

Qayta parda tutib tashlarkanman ko‘z,  
Bu borliq ko‘rindi sehrlil, ko‘rkam.  
Angladim.  
Har qanday go‘zallik ham, do‘st,  
Parda-to‘siq bilan chiroyli ekan.

## QISHLOQ

Ignalangan ko'ksimni  
Chokidan bir-bir so'kdim.  
Yuragimni hovuchlab,  
Siqib-siqib she'r to'kdim.

Oy oy emas men uchun,  
O'zgacharoq atayman.  
Yulduzning ismi boshqa,  
Barin bir-bir aytay man.

Eshitaman qirlardan  
Ozodlikning sasini.  
Men his qilib turaman  
Gullarning nafasini.

Zo'r davralarga kiring,  
Men tog'-u, yaylov yoqda.  
Siz minbarda qichqiring,  
Men kuylayman qishloqda.

Baland gaplar yoz, deysiz,  
Qumdan qasr qurgum yo'q.  
O'rtacharoq, shunchaki  
Gapdon shoir bo'lgum yo'q.



Aytilajak so‘zimni  
Hali bashar anglagay.  
Men qishloqdan hayqirsam,  
Butun jahon tinglagay.

\* \* \*

Azobi ham totli dard beribsan-a,  
Halqumdagi jonday titrab chiqar so‘z.  
Ilma-teshik qilib har gal ko‘ksimni,  
Xanjar sug‘rilganday potrab chiqar so‘z.

Tonglar rangsiz, sassiz qolmaslik kerak,  
Nechun beovozman, turibman sokin.  
Yurakdan otilgan bitta so‘z bilan  
Dunyoni titratib yuborish mumkin.

Dunyoni titratib yuborish mumkin!



## DO'RMON ILHOMI

Sukunatdan ko'ylak bichib kiygan ruhim,  
Bu bog'larda aylandi, oh, sayroq qushga.  
Kechagina ko'zim yetmay turmovmidim  
She'riyatning osmoniga tik boqishga.

Bugun ko'nglim ko'zgasiga zimdan qarab,  
Bobo Mashrab nigohini topgandayman.  
Lablarimda qaynoq so'zlar yonar guvrab,  
Qaynoq quyosh manglayidan o'pgandayman.

Bu bog'larda so'z havosi, she'r havosi,  
Daraxti-yu maysasi ham bo'lakchadir.  
Yaproqlari — necha shoir dil navosi,  
Shuning uchun shakli yurak, yurakchadir.

Shoirlanib ketdim hali dovondayoq,  
Ko'nglim qushi biram sayroq, biyron biram.  
Qaytdim tog'lardan ham bo'lib yuksakroq,  
Do'rmon hadya qilgan katta dard bilan.

Adabiyot, darvozung och, qulfin ilmasdan,  
Iz ko'rindi she'riyat degan dovonda.  
G'arb va yoki sharq tomondan de mayman,  
Bir shoir kelmoqda Mashrab tomondan.



## SHOIRA ZULFIYAXONIMNING DO‘RMONDAGI UY-MUZEYIDA

Ilhom malaklari darvozungizni  
Keng ochdi va meni oldi qarshilab.  
Siz paydo bo‘ldingiz go‘yoki birdan,  
Duolar qildingiz boshimni silab.

Sergul hovlingizga kirganim zahot  
Dimoqqa urildi bahor ifori.  
Siz bosgan tuproqni ko‘ryapman nahot,  
Hech armonsiz ketgum Namongon sari.

Hozir kuz bo‘lsa-da va lekin nogoh,  
O, ayni bahorga xayol obqochdi:  
Deraza oldida bir tup oq o‘rik,  
Boshimdan yam-yashil she‘rlarni sochdi.

Endi fursatlardan o‘zib ketgum bor,  
Ketyapman. Tabarruk nomingiz yo‘qlab.  
Bu hovlida mangu yashaydi bahor,  
Qayta kelaverar sizni so‘roqlab.

Jasur ruhinigizdan topgan jurat-la,  
Xat yozdim nomiga abadiyatning.  
Ustoz, hatlab qutlug‘ ostonangizdan,  
Eshigidan kirdim ADABIYOTning!

## ENG GO‘ZAL SHE’R

Farahbaxsh tun. Soat salkam o‘n ikki,  
Yurakni o‘ynatar har bir daqiqa.  
Biram yozgim keldi oyna ortida  
Shirin uxlayotgan qishloq haqida.

Mehrkash otamga o‘xshab ketasan,  
Mehring yurakka naqsh etib solganman.  
Qirlar yelkasida ko‘tarib turar,  
Tog‘laring boshiga chiqib olganman.

Onam qishloq, erka bolangman sening,  
Senda o‘sdim, senda ulg‘aydi dardim.  
Asli ilhom yurti qayda desalar,  
To‘ppa-to‘g‘ri seni aytardim.

Qayg‘urishlaringdan ketay aylanib,  
Bedorsan, farzanding o‘ylab betinim.  
Bosgan qadamimdan xavotirlanib,  
Yuragi guppilab urgan zaminim.

Kel, deb qo‘lin cho‘zib turgan daraxtlar,  
Fasllar qo‘shig‘in qo‘yadi gullab.  
Qushlarning suhbatini she‘rimga ko‘char,  
Sening har bir zarrang she‘rimga sabab.



Farahbaxsh tun. Soat salkam o'n ikki,  
Yurakni o'ynatar har bir daqiqa.  
Biram yozgim kelar oyna ortida  
Shirin uxlayotgan qishloq haqida.

Chirildoqlar tunning sukutin buzar,  
Soy ham ozodlikni kuylar berilib.  
Ko'zimga javdirab turgan yulduzlar  
Osmon ko'rpasiga olar berkinib.

Ko'zni qamashtirib tong kelar mana,  
Oqish, harir ko'ylak kiygan hur malak.  
Qandoq yozmay bo'lar bundoq fusunni,  
Bir ash'or o'tida qovrildi yurak

Bag'rida dunyolar tuyular kengroq,  
Umrinning har kuni sehrli o'tar.  
Bolam, deb erkalab, asrovchi qishloq,  
Onamdek xokisor, otamdek kamtar.

Bir ash'or ishqida o'lib-tirildim,  
Lazzatga aylandi tongda qiynog'im.  
Bilmas o'zi haqda yozganligimni  
Meni shoir qilib qo'ygan qishlog'im!



## DUNYONING ISMI

Turibman tashlagan to'rini ko'rib,  
Tushmasman mudroqlik sur qarmog'iga.  
O'yinqaroqlikni bir chetga surib,  
Shartta qadam qo'ydim she'r so'qmog'iga.

Bo'lsin deb so'zimda haqiqat ta'mi,  
Haq tutgan qalamni oldim qo'limga.  
O, bedard yuragim, tushunyapsanmi?  
Vatan, xalq ko'z tikib turar yo'limga.

Sharpasi sezildi ortimda birdan,  
Hozir meni to'xtatmoqchidek go'yo.  
Ko'zimni berkitib kaftlari bilan,  
Kimligimni top, deb tirmashar dunyo.

Men uning kimligin yaxshi bilaman  
Va etaveraman yo'limda davom...





## **SHOIRLIKKA YO‘L**

Yuragimdir shafaqrang,  
Lolalarga o‘xshaydi.  
Bobom xo‘p omochlagan  
Dalalarga o‘xshaydi.

Vaysiy, Mohlaroyimga  
Doir bo‘lmoqchiydim men.  
Dardi dunyoni tutgan  
Shoir bo‘lmoqchiydim men.

Shoir bo‘lay, deb Undan  
Toza dardlar tiladim.  
Dardlansin deb yurakni  
Tirnadim, timdaladim.

Ko‘nglimning gulbog‘ida  
Unar she‘r yalpizlari.  
Ko‘ksimning har yog‘ida,  
Tirnog‘imning izlari.

Yuragimda shu yoziq,  
Baxt — bu so‘lmas gulimdir.  
Timdalangan har chiziq  
Shoirlikka yo‘limdir.

## AVTOBUSDA

Yana ko‘zlarimga singib ketdi tun,  
Umrim sahnasida yana oppoq rang.  
Shoshilib kelmoqda yana yangi kun,  
Yangi tong qo‘shig‘i bermoqda jarang.

Bir chekkada bekat. Moshin to‘la yo‘l.  
Jilmaygan ko‘zlarim bitta nuqtada.  
So‘lib bitay dedi sabr degan gul,  
Axiyri avtobus kelib to‘xtadi.

Orzular eshigi bo‘lgan avtobus  
Manzilga shoshadi men bilan birga.  
Kecha-kunduz tinim bilmaydi hanuz,  
Nuqul tovonini ishqalar yerga.

Ko‘zlarimga to‘lib ketmoqda hayrat  
Avtobusdan boqib ketayotgan on.  
Bugun boshqacharoq ko‘rindi hayot,  
Bugun hamma menga tuyuldi shodon.

Daraxtlar tillorang ro‘molin o‘rab,  
Kuzgi izg‘irindan qilmas diydiyo.  
Avtobus oynasi ortidan qara-a-ab,  
Ustidan kulganim sezmaydi dunyo.



## KO‘ZBOYLAG‘ICH

(*Bolalar o‘yini*)

Asli katta o‘yin ekan ko‘zboylag‘ich,  
Yiqitmog‘i tayin ekan ko‘zboylag‘ich.

Har tarafda sarson, o‘jiz yurishlikdek  
Azob soat sayin ekan, ko‘zboylag‘ich.

Nur adashib, zulmat bosgan yo‘llaringda  
Goh do‘st, gohi xoin ekan ko‘zboylag‘ich.

Sharpa berib, keyin o‘zin obqochishar,  
Ming bir aldovdayin ekan ko‘zboylag‘ich.

Hayot asli o‘yin, toki ko‘zlarindan  
Yechilmasa qiyin ekan ko‘zboylag‘ich.



\* \* \*

Yo'llarimda U yoqqan fonus,  
Yuragimda alvon atirgul.  
Yor deb yonsam, yig'lasa qaqnus,  
Mendan ishqni o'rgansa bulbul.

Bu qurmag'ur devona ko'ngul,  
Samolardan axtarar sarhad.  
Chap ko'ksimda alvon atirgul —  
Shirin qiynoq, she'r atalmish dard.

Qarshi chiqmam dunyoi dunga,  
Qizil gulga to'lmoqda bag'rim.  
Xazon fasli kelmaydi bunga,  
Axir o'zing borsan-ku, Tangrim.

Qo'llarimdan tutib olib yur,  
O'zing yorug' qilgan yo'llarga.  
Yana... tez-tez nur yuborib tur  
Ko'ksimdagi atirgullarga!



\* \* \*

Xazonlar ichinda turibman karaxt,  
Hislarim kelishmas, so'zlarim to'mtoq.  
Hovlimizda o'sgan, ey, sershox daraxt,  
Ikkimiznikidir shu ona tuproq.

She'rlarimning ta'mi shirinmas, taxir,  
Lek dardim tinglaysan kecha-yu kunduz.  
Sen menga vatandosh, tuproqdosh axir,  
Ikkimiznikidir shu chuqur ildiz.

Ko'rsam shoxlaringda gullarning rangin,  
Gul bolalik kelar xotirlaringa.  
Ikkalamizni ham o'stirdi zamin,  
Tomirlaring tutash tomirlaringa.

Bu o'xshashlik o'yga toldirdi meni,  
Shu ona tuproqsiz senu men sag'ir.  
Ko'zyoshlarim bilan sug'oray seni,  
Sen menga tuproqdosh, vatandosh, axir.

Xazonzor ichinda turibman sokin,  
Xayolim nogohon shamoldek yeldi.  
Bu buyuk Vatanni yozishdan oldin,  
Daraxtlar haqida kuylagim keldi.

## TUGAMAGAN SHE'R

Sizga achinaman, she'rsiz kunlarim,  
Tasviri qog'ozga tushmagan tonglar.  
Shirin damlarim siz — o'tkan tunlarim,  
Faqat oq-qoradan iborat ranglar.

Sizga achinaman, mazmunsiz onlar,  
Behuda aylangan soat kavgiri.  
Sizga achinaman, bo'm-bo'sh tomonlar,  
Hayot — gavjumlikning xaridorgiri.

Senga achinaman, bedard yuragim...

\* \* \*

Har qadamda gul ildiz otar,  
Har soatda aylanadi yer.  
Oy ko'rinib, quyosh ham botar,  
Nega hanuz yaralmaydi she'r?

Tun ham uxlar — bunda men bedor,  
Oy, kel, qo'llaringni menga ber.  
Tong otyapti... yurak homilador,  
Qachon tug'iladi... she'r?!



\* \* \*

*Yurakdek bir qush bor, osmondek moviy...*

Iqbol MIRZO

Nahotki, yozishga hech vaqoyim yo‘q,  
Nahotki, yuragim hissiz va bo‘m-bo‘sh.  
Kuylamay ketishga kelgan joyim yo‘q,  
Yurakda sayraydi bir qush, sirli qush.

Ul qushdirki nolon qumri yo bulbul,  
Haq deb nafas olib, Haq deb yutingan.  
Chap ko‘ksidan unib qonli qizil gul,  
Ko‘nglim bilan opa-singil tutingan.

Balki Navoiy ham tinglagan uni,  
Balki Pushkin bilan sirlashgani rost.  
Tilini tushungan daho Yesenin,  
Bir umr vaslini qilganmi havas.

Ana, shundoqqina kezib yuribdi,  
Ammo tutib, ushlab bo‘lmaydi qo‘lda.  
Mana, yuragimga qo‘nib turibdi,  
Endi faqat uchib ketmasa bo‘ldi.

Nahotki, yuragim hissiz va bo‘m-bo‘sh,  
Nahotki, yozishga hech vaqoyim yo‘q.  
Sayrayver yurakda, ey qush, sirli qush,  
Kuylamay ketishga kelgan joyim yo‘q.



\* \* \*

Yuraginga gavhar soʻzlar sochib qoʻy,  
Hayot, tingla qalbim ovozasini.  
Tangrim, oʻzing uygʻot, qulfin ochib qoʻy  
Qulflangan koʻzim darvozasini.

Men faqat oldinga chopib boryapman,  
Yoʻlda qoqilmasdan, toymasdan toshga.  
Qara, bulutlardan chiqib boryapman,  
Yana, yana biroz qoldi Quyoshga!!!





\* \* \*

Olovlarda kuyib, yonib to‘ymadim,  
Sekundlarni o‘z holiga qo‘ymadim.  
Fursat bilan quvlashmashoq o‘ynadim,  
Vaqtimdan baxtimni yutib olay, deb.

Changalimda chirsillagan cho‘g‘ ushladim,  
Yo‘limdan tosh chiqsa toshni tishladim,  
Tovonimda tikon odim tashladim,  
Kiyikso‘qmog‘idan o‘tib olay, deb.

Adabiyot, munavvar qil yo‘limni,  
Oppoq orzularga yozdim dilimni,  
Olis osmonlarga cho‘zdim qo‘limni,  
Mashrab etagidan tutib olay, deb.

Ruhin Namongonda kutib olay, deb.



\* \* \*

Ona, qanday g'amgin bo'la olaman,  
Ko'kda yulduz xanda otganda.  
Men yig'lashni bilmay qolaman,  
Nastarinlar gullab yotganda.

Otam meni asraydi kuyib,  
Shunga ko'zim yig'i bilmaydi.  
Vatan meni ovutib qo'yib,  
O'rnimga ham o'zi yig'laydi.

Bugun shunday xursandman, hayhot,  
Yuragim ham quyoshli, oyli.  
Ba'zan tajang ko'ringan hayot,  
Tabassuming buncha chiroyli.





## YOR-YOR

*Oydina opamga*

Maysalar arosinda  
yalpiz yig'lar, yor-yor,  
Surmalar qarosinda  
bir qiz yig'lar, yor-yor.

Quyosh chaqnab ketgaydir,  
ko'zlari kulganda qiz,  
Chirmandaga yig'lama,  
oylarga arzanda qiz.

Manzili qaydin-qaydin  
uyga yetodi, yor-yor.  
Orzusi oydin-oydin  
opam ketodi, yor-yor.

Dili alyora opam,  
sizga baxtlar tiloyin,  
Ko'changizdan o'tganda  
"alla"lar eshitoyin.

Xayolimni o'g'irlab,  
yig'lama yalpizgina.  
Shodliklarga yo'g'ilib,  
ana ketdi qizgina.

Maysalar arosinda  
yalpiz yig'lar, yor-yor.  
Surmalar qarosinda  
bir qiz yig'lar yor-yor.





## SURXONDARYODA

Mashrab yurtidan keldim,  
Hiyyo-hiyyo, hiyyo-hiy.  
Barchin ortidan keldim,  
Hiyyo-hiyyo, hiyyo-hiy.

Oybarchinim qaydasan,  
Hayyo-huyt, hayyo-huyt.  
Hoy Alp inim, qaydasan.  
Hayyo-huyt, hayyo-huyt.

Oybarchinning jamolin  
So'yla, dutorim.  
Alp jigitning kamolin  
Kuyla, dutorim.

Surxonning tog'larida,  
Boysunning bog'larida  
Qo'shiq aytay, momojon.  
Mashrab bobom devonin,  
Qahhor baxshi dostonin  
Qo'shib aytay, momojon.

Baxtim ortaveradi,  
Shukur shunday zamonga.  
Ko'nglim tortaveradi  
Surxondayra tomonga...  
Hayyo-huyt, hayyo-huyt.

\* \* \*

Ko'kni tutgoli keldim,  
Bir to'kilib olsinda.  
Qo'shiq aytgoli keldim  
Daryoning yaqosinda

Huv quyoshni quchoqlab  
Turganimni kim ko'rgan?  
Momom-chi, kokilimga  
Baxtimni qo'shib o'rgan.

Eh-hey, ko'hna Namongon,  
Baytlar topdim kechangdan.  
Mashrab qo'shiq kuylaydi  
Sening har bir ko'changda.

Tuyg'ularim yam-yashil,  
Orzularim gulzordir.  
Sayrayverar jonqushim,  
Yuragim bulbulzordir.

Hayot qilgan jilvalar  
Bir go'zal tuyuladi.  
Ko'ksimdagi jilg'alar  
Bo'g'zimga quyiladi.



Ko'kni tutgoli keldim,  
Bir to'kilib olsinda.  
Qo'shiq aytgoli keldim  
Daryoning yaqosinda...



## **TOSHKENT YO'LIDA**

Fasli bahor e masdir motamsaro,  
Ammo ko'nglimda bir bo'shliqdek gohi.  
Kurtak yozayotgan daraxtlar aro  
Habib Sa'dulloning mamnun nigohi.

Birdan xayollarim ketar sochilib,  
Bahor kezib yurar Toshkan yo'lida.  
Zulfiya turibdi qiyg'os ochilib,  
"Salqin saharlarda, bodom gulida".

Qaldirg'ochlar keldi shoirni so'rab,  
Qalbda quvonch, shodlik, shukuh, onajon.  
Oppoq gullayotgan o'rikka qarab,  
Bunda she'r o'qiyladi Hamid Olimjon.



## **BEKATDA**

Bekat, ajib sarguzashtlar makoni,  
Bu yerda to'kilib ketar yuragim.  
Yangi she'r yozishning vaqti, imkoni,  
Shu yerda so'kilib ketar yuragim.

Bunda kutiladi, sinalar sabr,  
Dilim go'zallikni kuylayotibdi.  
Garchi yaqinlashib qoldi sentyabr,  
Yuragimda bahor gullab yotibdi.

Ko'zida ishonchdan boshqa narsa yo'q,  
Qarang, qaro tunday qoradir qoshi.  
Ko'ksida quvonchdan boshqa narsa yo'q,  
Bekatda gul sotar... mening tengdoshim.





## **ARUZ MASHQI**

Ul sanam nazar etsa, baland ko'ngil toqiyo,  
Aning o't nigohidin kuylarim o'ynoqiyo.

Ko'ziga boqsam to'yib, qarocho'g'ida kuyib,  
Qadah qil ko'ksim o'yib, may quy manam soqiyo.

Ko'zining otashidin olovxo'r qaqnus o'ldim,  
Nigohin kuylar ajab jon qushin sayroqiyo.

Qayrilib qaroshig'a yetarmi bardoshima,  
Oftobro'y qoshig'a, parvona bormoqiyo.

Jon yetar poyoniga, dil visol ayyomiga,  
Qiyoni qiyomiga yetkazib qilsa qiyo.



## **GUL G‘AZALI**

Ko‘rdim gulgun yuzingda billur tomchi yoshing, gul,  
Boqqa kirsam har sahar ta‘zimdadur boshing, gul.

Sabo sochlaring o‘ynab, chamanda xirom etsa,  
Chamamda yoshurgaysen, atay ko‘zu qoshing, gul.

Bale, qadding qiyomat, ham belu qo‘ling nozik,  
Va le banding omonat, metin sabru doshing, gul.

Quyoshga boqqaymusen, quyosh senga boqarmu,  
Va yo oshig‘ingmu ayt, ko‘kdagi quyoshing, gul.

Nahorda oftob nur taratgay sabzalarga,  
Ki rohat boshing egib, kokiling taroshing, gul.

Gulga aylan, Mehrinoz, Gul shahrida gul sayli,  
Hur Vatan bir chamandur, sening ham qiyosing gul.



\* \* \*

*O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarovning "Yetti go'zal", "Qirq go'zal" nomli suratlariga qarab*

Ko'z eshigida ki priklar turodurlar soqchiday,  
Anga kirmakchi bo'lg'on jonini olmoqchiday.

Qon qizil g'uncha labi, mena ayondek talabi,  
Ishqida yonganlarni kul qilib, kulmoqchiday.

Anga shaydo ishq ahlig'a choh qazib kulgichlari,  
Kuydirishda quyoshning bir bo'lagi bo'lmoqchiday.

Ikki ol yonog'iga tushgan ul qaro zulfi,  
Ushshoqi zorg'a atay qo'yilgan sirmoqchaday.

Yetti go'zal yetmish ming tomirlarim chirt uzib,  
Qirq go'zal qirq jonim so'rasa qandoq chiday.

Nigohiga Mehrinoz kirmoqni etsam ixtiyor,  
Ko'z eshigida ki priklar turodurlar soqchiday.



## KUZATISH

(*kuz aytish*)

Derazamni ochdim, boshlandi hayot,  
Xonamdan kuzata boshladim darrov.  
Yo rab, ko'z o'ngimda shamollar jallod,  
Barglarning boshini olar beayov.

Tag'in kuz kelibdi, firoq hukmron,  
Visollar ustidan hijronlar g'olib.  
Shamol uvillaydi yig'lagansimon,  
Daraxtning bo'yniga osilib olib.

Hayratdan tek qotib tursam, hamalning  
Ohlari yurakni chimchilab oldi.  
Shartta derazamni yopdim, shamolning  
Rangsiz ko'ylaklari qimchilib qoldi.

Eh, faqat kuzatib turmoqlik qiyin...





## **OZODLIK**

Anov ko'kda uchib yurgan qush,  
Bir paytlari mung'ayib xomush,  
Yotar edi qafasda qaqshab,

Endi esa ozoddir, erkin,  
Ko'kka baland uchishi mumkin,  
Xuddi menga o'xshab!



\* \* \*

Havoyi gaplardan kimga nima naf,  
Befoyda soʻz — soʻlib bitgan gul.  
Topa oldimmikin? Qaysi bir taraf  
Sen toʻgʻri deb koʻrsatyotgan yoʻl.

Dunyo — gavjum bozor, narxlari baland,  
Qachon yurishadi savdoim?  
Menga oʻzing kutib turgan yoʻl bilan,  
Soʻlmaydigan gul ber, Xudoyim.





## TANOVOR

Gulli ko'chalarda tashlayman qadam,  
Gulgun hislarimda savollar tugun.  
Balki u yonimda turar ayni dam,  
Topolarmikinman uni shu bugun.

Qayrilib qarayman, qani, qayerda?  
Nahotki, yo'qlikka ketganman singib.  
Nur bo'lib chiqaman zulmat qa'ridan,  
Yoningga yetaman yellarni yengib.

Mana, senga oppoq yuragim tutdim,  
Bir bor ko'rsatmaysan o'zingni nechun?  
Seni eslayman deb o'zni unutdim,  
O'zimni yo'qotdim seni topmoq-chun.

Sen esa qayerda, kutyapsan neni?  
Qara, ko'zlarimning sohillari nam.  
Olamga hayqirib chaqirsam seni,  
Javob berar hatto tog'u toshlar ham.

Nega sukutdasan — nimaga jimсан?  
Tinmay beraverdim shu savollarni.  
Nigohing aksi bor falakka qasam,  
Izlayverdim senga eltar yo'llarni.



Qayerga bormayin sezib turaman  
Ortimdan kuzatgan nigohing kuchin.  
Borimni beraman, jonim beraman  
O'sha nigohingni ko'rmoqlik uchun.

Isming aytay desam kuydi tomog'im,  
Bo'g'zim hamma yog'i ilma-teshik nay.  
Hatto daraxtlar ham senga intilsa,  
Men nega turishim kerak indamay.

Dunyoni kezarman Mashrabday dalli,  
Sen tengsiz ma'shuqsan, biz so'zsiz ushshoq.  
Odimlasam faqat sening yoding-la,  
Tikon ham sanchildi gul kabi yumshoq.

Sirqirab qon oqdi tovonlarimdan,  
Va bu qon tuproqqa qorishib ketdi.  
Yuragim quyoshga aylandi birdan,  
Ko'ngrim ko'chalari yorishib ketdi.

Havoning shaklini ko'ra boshladim,  
Shamolning rangini ilg'adim nogoh.  
Sirli visolingni topishim haqqi,  
Menga butun borliq bo'ldi xayrixoh.

Osmonda nigohing, gulda orazing,  
Tog'larda savlating, bag'ring qirlarda.



Mayin sabolarda uchdi nafasing,  
Siymong gavdalandi rangin nurlarda.

G'unchaning labida pichirlading sen,  
Qushlar sen o'rgatgan qo'shiqni aytdi.  
Yellar etagini hilpiratib keng,  
Hiromon aylamish bog'larda daydi.

Bani borliq senga qilar ibodat,  
Ruhim qushi sayrar sen tomon ucha.  
Topdim, mujassamsan, sendan iborat  
Zamindan to olis koinotgacha.

Entikdim nomingni takrorlayotib,  
Seni axtarishni qilmasdan kanda.  
Tun qora ko'rpasin ustiga yopib,  
Oyni yostiq qilib uxlab yotganda.

Asta chayqaladi osmon dengizi,  
Yulduzlar ko'zimga ketmoqda sachrab.  
Har bir nafasimda nafasing sezib,  
Ko'zimda ko'zingni qololsam asrab.

Topdim, senga bo'lgan chin ishqim g'olib,  
Bildim, bildirmasdan kuzatyotgan kim.  
Endi yuragimga joylashib olib,  
Ko'zlarimdan qarab tur, Tangrim.  
Ko'zlarimdan qarab tur Tangrim!

## CHISTON

Ayni go'zal chog'i Navro'zdin iborat,  
Yal-yal yashil qabosi ko'z-ko'zdin iborat.  
Zangori to'n birla feruz ko'zga o'xshaydur,  
To'n yechsa ajab boshdin-ayoq ko'zdin iborat.

(Bodom)

## TO'RTLILAR

Orzugulim yashnab o'smoqda durkun,  
Xayolning eng go'zal qasrini qurdim:  
Qo'llarimni cho'zsam yetadi bir kun  
Osmonning boshini silashga qurbim.

\* \* \*

Dunyo, meni anoyi bilma,  
Kamolim baxt bo'lib gullaydi.  
Mening sabrim tugagunicha,  
Sabrning ham sabri tugaydi.



\* \* \*

Shuncha quvonchlardan yuragim karaxt,  
Asta omad qushin yelkamga oldim.  
Baxt bu — osmono‘par ulkan bir daraxt,  
Uning shoxlariga ilinib qoldim.

## UCHLIKLAR

Nega gullamasdan turibsan karaxt,  
Yiqilib ketar deb g‘am ye ma, daraxt,  
Senikidan chuqur mening ildizim.

\* \* \*

Bir o‘zimni tashlab qochsang ham,  
Boshimdan balolar sochsang ham,  
Men senga gul sovg‘a qilaman.



## MUNDARIJA

Ezgu an'ana.....	3
Qo'shig'im.....	5
O'zbekistonim.....	6
Muborakbod.....	7
“Mana men — yoshlikman”.....	8
Xitob.....	9
“Menga har qachongidan...”.....	10
“Tuni bilan qon bo'ldi bag'ir”.....	11
Fevral she'ri.....	12
Boychechakli she'r.....	13
Yomg'ir.....	14
“Ajab sohir tuyulmoqda bu damlar”.....	15
Bahor.....	16
“Bu zamon bo'ronlar qilolmas hamla”.....	17
“Baxtdan masrur ruhim...”.....	18
Tug'ilgan kunim.....	19
“Uxloq hislarimni seldek gurlatgan”.....	21
“Kulsam, yig'lash tamom chiqadi yoddan”.....	22
May.....	23
Iyun.....	24
Otashkurak.....	25



Parda.....	26
Qishloq.....	27
“Azobi ham totli dard”.....	28
Do‘rmon ilhomi.....	29
Shoira Zulfiyaxonimning Do‘rmondagi uy-muzeyida.....	30
Eng go‘zal she‘r.....	31
Dunyoning ismi.....	33
Shoirlikka yo‘l.....	34
Avtobusda.....	35
Ko‘zboylag‘ich.....	36
“Yo‘llarimda U yoqqan fonus”.....	37
“Xazonlar ichinda turibman karaxt”.....	38
Tugamagan she‘r.....	39
“Nahotki, yozishga hech vaqoyim yo‘q”.....	40
“Yuraginga gavhar so‘zlar sochib qo‘y”.....	41
“Olovlarda kuyib, yonib to‘ymadim”.....	42
“Ona, qanday g‘amgin bo‘la olaman”.....	43
Yor-yor.....	44
Surxondaryoda.....	46
“Ko‘kni tutgoli keldim”.....	47
Toshkent yo‘lida.....	48
Bekatda.....	49

Aruz mashqi.....	50
Gul g'azali.....	51
“Ko‘z eshigida kipriklar...”.....	52
Kuzatish.....	53
Ozodlik.....	54
“Havoyi gaplardan kimga nima naf”.....	55
Tanovor.....	56
Chiston.....	59
To‘rtliklar.....	59
Uchliklar.....	60

MEHRINOZ ABBOSOVA

## **MEN YOSHLIKMAN**

*She'rlar*

Muharrir: *Nosirjon Jo'rayev*

Rassom: *Nazokat Boltaboyeva*

Badiiy muharrir: *Iqbol Abdurazzoqova*

Texnik muharrir: *Nodir Suvonov*

Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.

Terishga 16.09.2011 da berildi. Bosishga ruxsat 02.12.2011 da

berildi. Bichimi 70x90 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Ofset usulida bosildi.

«Academy» garniturasini. Shartli b.t. 2,34. Nashr-hisob t. 2,0.

Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma № 11-868

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy

Tel: (8371) 245-89-24.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop  
etildi. 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.